

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**I.R.Asqarov, M.M.Mo'minov, U.Sh.Xusanov**

Gulxayri(*Althaea officinalis L.*) o'simligini kimyoviy tarkibi, gulxayri moyini elementlar analizi va uning xalq tabobatidagi axamyati..... 117

**BIOLOGIYA****Sh.X.Yusupova, I.I.Zokirov**

No'xat agrotsenozi zararli entomofaunasining ekologo-faunistik tahlili  
(Shimoliy Farg'ona misolida) ..... 124

**K.Zokirov, A.K.Xusanov, O.T.Sobirov, M.F.Xafizddinov, D.A.Saidjaxonova,  
S.T.Tillayeva, A.A.Kozimov**

Sharqiy Farg'ona sharoitida terak qabariq qalqondori (*Diaspidiotus slavonicus*  
(green, 1934)ning biologik va zoogeografik xususiyatlariga oid..... 132

**Z.J.Isomiddinov, D.A.Mirzaliyeva**

Xushbo'y shivit (*Anethum graveolens L.*) o'simligining biokimyoviy xossalari ..... 140

**F.I.Xalmetova, X.S.Axmedov, S.N.Buranova, A.N.Botirbekov**

Reaktiv artritning genetik jihatlari ..... 143

**M.R.Shermatov**

Farg'ona vodiysi agroekotizimlari tangachaqa notli hasharotlarining  
(insecta: Lepidoptera) zoogeografik tahlili ..... 147

**K.Z.Yakhyeva, F.F.Xoltayeva, K.K.Aliyeva**

Chaqaloqlarda buyrak patologiyasi sabalari ..... 154

**M.A.Raximov**

Mollarni go'shtga boqishda genetik imkoniyatlardan samarali foydalanish ..... 158

**M.X.Mirraximova, N.Y.Nishonboeva**

Genining polimorfizmi atopik dermatitda ..... 162

**G.M.Zokirova**

Farg'ona vodiysi sharoitida *Cinara tujafilina* (Del Guercio, 1909) shirasining  
(Homoptera, Lachnidae) biologiyasi ..... 166

**E.A.Botirov**

Janubiy Farg'onaning Agrotis avlodni tunlam kapalaklari faunasi va ekologik xususiyatlari ..... 170

**G.M.Duschanova, N.A.Sobirova, D.A.Abdullahayev**

Toshkent botanika bog'i sharoitida *Eremurus lactiflorus* O. Fedtsch. (Xanthorrhoeaceae)  
o'simligi bargining strukturaviy xususiyatlari ..... 176

**F.M.Abduvaliyeva, Sh.S.Xushmatov**

Andijon shahrida joylashgan №1-son mакtab o'quvchilarining (1-11 sinf)  
anfimova testi asosida intellektual rivojlanish darajasi tahlili ..... 182

**GEOGRAFIYA****Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev**

Aholining hududiy taqsimlanishini tahlil qilishida zamonaviy iqtisodiy-geografik  
tadqiqotlarning zarurati ..... 187

**ILMIY AXBOROT****G.M.Mansurov**

Nemis tili darslarida til o'yinlari yordamida suhbatlashish qobiliyatlarini  
rivojlantirishni o'rganish ..... 192

**N.A.Sharopova**

Qashqadaryo viloyati umumta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini  
mustahkamlash tadbirlari va ularning natijasi ..... 196

**O.A.Maniyozov, A.A.Bozorqulov, O.S.Isomiddinova**

Ta'lrim jarayonida birinchi tartibli chiziqli oddiy differensial tenglamalarni yechimini  
maple dasturida topish ..... 199

**D.O.Qarshiyeva**

Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kuest texnologiyasi asosida darslarni tashkil etish  
kompetentligini rivojlantirish ..... 203

**G.B.Nafasova, B.S.Abdullayeva**

Bo'lajak fizika o'qituvchilarining ilmiy-mantiqiy dunyoqarashini shakllantirish ..... 208

**TA'LIM JARAYONIDA BIRINCHI TARTIBLI CHIZIQLI ODDIY DIFFERENSIAL  
TENGLAMALARING YECHIMINI MAPLE DASTURIDA TOPISH**

**ПОИСК РЕШЕНИЯ ЛИНЕЙНЫХ ОБЫКНОВЕННЫХ УРАВНЕНИЙ ПЕРВОГО  
ПОРЯДКА В ПРОГРАММЕ MAPLE В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ**

**FINDING THE SOLUTION OF FIRST-ORDER LINEAR ORDINARY DIFFERENTIAL  
EQUATIONS IN THE MAPLE SOFTWARE IN THE EDUCATIONAL PROCESS**

**Maniyozov Oybek Azatovich<sup>1</sup>, Bozorqulov Adhamjon Abdujabborovich<sup>2</sup>,  
Isomiddinova Odilaxon Sultonmurodovna<sup>3</sup>**

**<sup>1</sup>Maniyozov Oybek Azatovich**

– Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Farg'ona filiali, o'qituvchisi

**<sup>2</sup>Bozorqulov Adhamjon Abdujabborovich**

– Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Farg'ona filiali, o'qituvchisi

**<sup>3</sup>Isomiddinova Odilaxon Sultonmurodovna**

– Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Farg'ona filiali, magistranti

**Annotatsiya**

*XXI asr texnologiyalar asri hisoblanadi. Shunday ekan o'quv jarayonida turli zamonaviy axborot vositalaridan o'rinni foydalanish, kompyuterli ta'lim jarayonida darslarni o'quvchi-talaba va kompyuter orasidagi munosabatlarga ko'ra tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish bugungi kunda dolzarb masalalardandir. Tabiiy fanlar hamda texnika fanlarida uchraydigan ko'pgina masalalar differensial tenglamalarda keltiriladi, ya'ni ularning analitik yechimini topish niyoyatda murakkab masala, shu sababli taqribiy yechish usullaridan foydalanish ko'proq samara beradi. Bunday muammolarni hal qilish uchun esa matematik paketlar mavjud bo'lib, ushbu maqolada differensial tenglamalarni Maple dasturida yechish haqida gap boradi. Ya'ni, birinchi tartibli chiziqli oddiy differensial tenglamani Maple dasturida analitik yechimini topish dasturi tuzilib natija olingan.*

**Аннотация**

*XXI век – век технологий. Поэтому правильное использование различных современных информационных носителей в учебном процессе, организация, руководство и контроль занятий в процессе компьютерного образования по взаимоотношениям ученика и компьютера являются сегодня одними из актуальных вопросов. технологии Многие задачи, встречающиеся в науках, сводятся к дифференциальным уравнениям, то есть нахождение их аналитического решения является чрезвычайно сложной задачей, поэтому более эффективно применение приближенных методов решения. Для решения таких задач существуют математические пакеты, и в данной статье рассказывается о решении дифференциальных уравнений в программе Maple. То есть была создана программа для нахождения аналитического решения линейного обыкновенного дифференциального уравнения первого порядка в программе Maple и результат был получен.*

**Abstract**

*XXI century is the century of technologies. Therefore, the proper use of various modern information media during the educational process, the organization, management, and control of lessons in the process of computer education according to the relationship between the student and the computer are among the urgent issues today. Natural sciences and technology Many problems encountered in the sciences are reduced to differential equations, that is, finding their analytical solution is an extremely difficult problem, therefore, the use of approximate solution methods is more effective. To solve such problems, there are mathematical packages, and this article talks about solving differential equations in the Maple program. That is, the program for finding the analytical solution of the first-order linear ordinary differential equation in the Maple program was created and the result was obtained.*

**Kalit so'zlar:** Maple dasturi, analitik yechim, birinchi tartibli chiziqli oddiy differensial tenglama, taqribiy yechim, matematik modellashtirish, bir jinsli chiziqli oddiy differensial tenglama, matematik model, kompyuter matematikasi tizimlari.

**Ключевые слова:** Программа Maple, аналитическое решение, линейное обыкновенное дифференциальное уравнение первого порядка, аналитическое решение, приближенное решение, математическое моделирование, однородное линейное обыкновенное дифференциальное уравнение, математическая модель, системы компьютерной математики.

**Key words:** Maple program, analytical solution, first-order linear ordinary differential equation, analytical solution, approximate solution, mathematical modeling, homogeneous linear ordinary differential equation, mathematical model, computer mathematics systems.

**KIRISH**

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lrim sohasidagi islohotlar respublikaning ravnaqini ta'minlaydigan istiqboldagi rejalarini amalga oshirishda muhim o'rinn tutadi. Mamlakatimiz taraqqiyotining asosi, bugungi kunda ta'lrim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchi-talabalarning bilim darajasi va egallagan ko'nikmalariga bog'liq.

Hozirgi kunda bir qator matematik paketlarning paydo bo'lishi bilan oliy o'quv yurtlarida zamonaviy matematikada davr talablari asosida murakkab masalalarni yechishda axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoxda. Bunday ko'p funksiyali o'qtish vositalari bir vaqting o'zida dasturlash va matematik modellashtirish, shuningdek, axborot muhitini tashkil qilish, axborot ob'yeektlarini yaratish va qayta ishlash vositasi bo'lib, matematik paketlar xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun bunday dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va undan foydalanish ko'nikmalarini egallash muhim vazifadir. Bunday paketlardan foydalanish matematikaga qiziqishni oshiradi va murakkab masalalarni yechishni soddalashtiradi. Matematik paketlar talabalarning o'quv faoliyatini sezilarli darajada osonlashtiradi [1].

Xususan, texnika oliy ta'lrim muassasalarida oliy matematika o'quv fani tarkibidagi differensial tenglamalar modulini o'qtish natijasida olinadigan matematik bilimlar mutaxassislik fanlarini o'rganishga yordam beradi. Oliy matematika fanining ahamiyatidan kelib chiqib, uning tarkibidagi differensial tenglamalar modulini amaliy ahamiyatga ega masalalar yechishni o'qtishning sifat va samaradorligini oshirish hamda uning o'qtish mazmunini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishda Maple dasturidan foydalanilsa, dars mashg'ulotlari sezilarli va sifatliroq bo'ladi. Chunki, differensial tenglamalar ishlatilmaydigan fan tarmog'ni topish qiyin. Differensial tenglamalar nazariyasi amaliy matematika, fizika, biologiya, iqtisod va h.k. larda uchraydigan ko'plab masalalarni tadqiq etishda muhim vosita hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR TAHЛИI VA METODOLOGIYA

Ma'lumki, matematika fani tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayonlarni o'rganish va tahlil etishda asosiy vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Matematik paketlardan o'quv jarayonida foydalanish matematik va texnik ta'limganing fundamentalligini oshirishni ta'minlaydi. Talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash mahoratlarini oshiradi. Differensial tenglamalarni o'zlashtirishda Maple dasturi bugungi kunda talabalarga ko'pgina imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Xususan oliy ta'limga differensial tenglamalarga oid misollarning yechilishi jarayonida va grafik chizmasini chizish murakkab bo'lib keladi, Maple dasturi bilan ishlash esa talabalarga ko'pgina yangiliklar va qulayliklar yaratib beradi.

Shuni ta'kidlash keraki, Maple tizimining birinchi avlodi 1980-yili Kanadaning Waterloo universiteti mutaxassislari Keyt Ged va Gaton Gone tomonidan katta EHMLar uchun yaratilgan. 2000-yil dekabr oyining oxirida esa **Maple 6** tizimi shu universitetda yaratildi. Waterloo universiteti 2004-yil 7-aprelda **Maple 9.5** tizimi yaratdi. Bu tizim iqtisodiyot, mexanika, matematika, fizika, muxandislik va h.k. yo'naliishdagi masalalarni yechishda matematikaning analitik hamda sonli usullarini qo'llashni amalga oshiradi. Shuning uchun hozirgi kunda ham **Maple 6**, **Maple 7**, **Maple 8**, **Maple 9.5** tizimilaridan keng foydalanib kelinmoqda. Kompyuter algebrasi tizimlari hisoblash tizimlari uchun qo'llaniladigan "kompyuter intellekti" tushunchasini mazmun va mohiyatini amalda namoyish qilish imkoniyatini yaratdi. Bu tizimlar amaliy dasturlar ta'minotini yaratuvchi mutaxassislar uchun quyidagi vositalarni yaratadi [2].

- yuqori saviyadagi dasturlashtirish tizimi;
- hujjatlar va dasturlarni yaratish hamda tahrirlash imkoniyatini beruvchi redaktorlar;
- foydalanuvchilar uchun bevosita muloqot asosida ishlash imkoniyatini beruvchi zamonaviy ko'p oynali interfeys;
- yuqori saviyadagi ma'lumotnomalarini tizimi;
- matematik ifodalarni qayta ishlovchi algoritmlar va qoidalalar majmuasi;
- analitik va sonli amallarni bajaruvchi dasturiy protsessor;
- muloqot jarayonida sodir bo'ladigan xatoliklarni ko'rsatuvchi diagnostika tizimi;
- tizimning bevosita yadrosiga biriktirilgan funksiyalar kutubxonasi;
- tizimni qo'llash va matematik usullarni tatbiq qilish uchun kerak bo'ladigan paketlar majmuasi.

O'quv jarayoniga kompyuter texnologiyalarining joriy etilishi og'ir hisoblash jarayonlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan fizikaning ayrim masalalarini o'rganish metodikasini sezilarli darajada o'zgartirish imkonini beradi. Hozirda ilmiy tadqiqotlar, muhandislik ishlab chiqish va iqtisodiy va matematik hisob-kitoblar, kompyuter matematikasi tizimlari eng ko'p qo'llaniladigan

## ILMIY AXBOROT

tizimlardir. Kompyuter matematikasi tizimlarini o'rganishni matabdan boshlash yaxshidir. Birinchidan talabani unga qiyin bo'lgan muammolarni yechish va tekshirishga qiziqtirish osonroq, ikkinchidan, kelajakda matematikaning murakkab olamida orientirlash malakalari saqlanib qoladi. Ta'lrim muassasalarida kompyuter matematikasi tizimlaridan foydalanish samarali assimilyatsiya qilish imkonini beradi va umumiy va maxsus fanlarni o'rganishda talabalar tomonidan olingan bilimlarni mustahkamlash, shuningdek, kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish mustaqil tadqiqot ishlarni bajarish uchun qulaydir [3].

Quyida birinchi tartibli oddiy differensial tenglamalarning bir turi hisoblangan birinchi tartibli chiziqli oddiy differensial tenglamalar haqida ma'lumot beramiz va uni Maple dasturida yechish dasturini tuzamiz.

$$\text{Noma'lum funksiya va uning hosilasiga nisbatan chiziqli bo'lgan } \frac{dy}{dx} + P(x)y = Q(x) \quad (1)$$

ko'rinishdagi tenglama birinchi tartibli chiziqli oddiy differensial tenglama deyiladi. Bu yerda  $P(x)$  va  $Q(x)$  –biror J intervalda aniqlangan va uzlusiz funksiyalardir. Agar tenglamaning o'ng tomoni  $Q(x)=0$  bo'lsa, (1) tenglama  $\frac{dy}{dx} + P(x)y = 0$  ko'rinishni oladi. Bu tenglama berilgan (1) tenglamaga mos bir jinsli chiziqli oddiy differensial tenglama deyiladi [4].

Ushbu

$y' - \frac{x}{x^2 - 1} y = x$  differensial tenglamaning yechimini toping. Bu tenglama birinchi tartibli chiziqli oddiy differensial tenglamadir. (1) formulaga ko'ra  $P(x) = -\frac{x}{x^2 - 1}$ ,  $Q(x) = x$  ga teng.

## MAPLE DASTURI

```
> restart;
> P:=x->-x/(x^2-1);g:=x->x;           P := x → - $\frac{x}{x^2 - 1}$ 
                                                g := x → x
> linear_ode:=diff(y(x),x)+P(x)*y(x)-g(x);
                                                linear_ode :=  $\left(\frac{d}{dx}y(x)\right) - \frac{x y(x)}{x^2 - 1} - x$ 
> with(DEtools,odeadvisor);
                                                [odeadvisor]
> odeadvisor(linear_ode);
                                                [_linear]
> dsolve(linear_ode);
                                                y(x) = (x - 1)(x + 1) +  $\sqrt{x - 1}\sqrt{x + 1}$  _C1
```

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Differensial tenglamalar uchun doim ham aniq analitik yechim topilmaydi. Yuqoridagi tenglama  $\frac{dy}{dx} + P(x)y = Q(x)$  ko'rinishida bo'lib, uning umumiy yechimida  $C_1$  parametr qatnashdi,

$C_1$ -o'zgarmas son.

Eslatma: Berilgan tenglama 1-tartibli bo'lgani uchun yechimda bitta o'zgarmas son qatnashadi. Olingan yechimdagi  $_C1$  integrallashda hosil bo'ladigan o'zgarmas son.

Dasturning ikkinchi qatorida  $P(x)$  va  $Q(x)$  funksiyalarni kiritib olamiz.

ODE - oddiy differensial tenglama

**linear\_ode** - birinchi tartibli chiziqli oddiy differensial tenglama.

**with(DEtools)**-differensial tenglamalar ustida bajariladigan amallar paketini ochish.

**odeadvisor** - tenglama turini tasniflash.

**dsolve(linear\_ode)** - birinchi tartibli chiziqli oddiy differensial tenglamaning yechimini topish.

## XULOSA

Haqiqatda mavjud obyektlarning asosiy xossalari ularning matematik modellari yordamida o'rganishning klassik vositasi bu analitik usullar bo'lib, ular aniq yechimni matematik formulalarda ifodalash imkonini beradi. Bu usullar hozirgi kunda ham masalani yechish haqida yetarlicha aniqlikdagi to'la axborotni bermoqda va ular o'z amaliy ahamiyatini yo'qtgani yo'q. Ammo, afsuski, ularning qo'llanilish sohasi juda cheklangan. Shuning uchun, odatda, sonli usullarga yoki hisoblash usullariga murojaat qilinadi.

So'ngi paytlarda Maple matematik dasturi ommabop bo'lib, u simvolik matematikada yetakchi hisoblanadi. Maplening so'nggi versiyalari qo'shimcha algoritmlar va matematik muammolarni yechish usullaridan tashqari, yanada qulayroq grafik interfeys, ilg'or vizualizatsiya va grafik vositalarni, shuningdek, qo'shimcha dasturlash vositalarini, shu jumladan universal dasturlash tillari bilan moslikni o'z ichiga oladi.

Axborot texnologiyalari rivojlangan davrda kompyuter texnologiyalari yordamida darslarni o'tkazish talabalarni darsda befarq bo'limaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi, kompyuter savodxonligini oshishiga sabab bo'ladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

- 1.Дьяконов В. П. Maple в математических расчетах. Издательство: ДМК-Пресс, 2018 г.  
<https://www.labirint.ru/books/423645/>( Maple in mathematical calculations. Publisher: DMK-Press,2018  
<https://www.labirint.ru/books/423645/>)
- 2.Дьяконов В. Maple 10/11/12/13/14 в математических расчетах.—М.:ДМКПресс,2011( Maple10/11/12/13/14 in mathematical calculations.—M.: DMKPress, 2011)
- 3.Таранчук, В. Б. Основные функции систем компьютерной алгебры: пособие для студентов факультета прикладной математики и информатики / В .Б. Таранчук. – Минск: БГУ, 2013 (Basic Functions of Computer Algebra Systems: A Student's Guide Faculty of Applied Mathematics and Informatics / V.B. Taranchuk. - Minsk: BGU, 2013)
- 4.Q.O'rino, E.M.Mirzakarimov. Differensial tenglamalar Maple tizimida. "Farg'on" nashriyoti 2020( Differential equations in the Maple system. "Fergana" publishing house 2020)